



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI**

2025-yil 29-aprel

196-4-0-Q/25

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida” gi 70-son farmoni haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi 70-son farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi 70-son farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu farmoni bilan:

I. Maqsadlari:

1 - bandiga ko‘ra, quyidagilar 2025-yilda xususiylashtirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari etib belgilanganligi:

a) 30 trillion so‘mlik davlat aktivlari va yer uchastkalarini sotish va kamida 10 trillion so‘m tushumni ta‘minlashi;

b) davlat va davlat ishtirokidagi korxonalariga tegishli 115 ta jamiyat ustav kapitalidagi ulushlarni, 659 ta ko‘chmas mulk obyektini va 6,1 ming gektar yer uchastkalarini savdoga chiqarishi;

v) dastlabki bosqichda kamida 30 ta foydali qazilma kon va uchastkalaridan foydalanish huquqini savdoga chiqarishi;

II. Davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirishi:

2 - bandiga ko‘ra, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektor ulushini oshirish maqsadida, 2030-yil 1-yanvarga qadar davlat ishtirokidagi korxonalarini (mudofaa va xavfsizlik bilan bog‘liq korxonalar hamda O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno) tashkil etishga moratoriy joriy qilinganligi;

3-bandiga ko'ra, belgilanganligi bo'yicha:

a) respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ko'chmas mulk sotib olish, davlat funksiyasiga va davlat mulkiga egalik qilish mezonlariga mos bo'lmagan korxonalarni tashkil etish tashabbusi bilan chiqishga yo'l qo'yilmasligi;

b) davlat ishtirokidagi korxonalarda aksiyador (ishtirokchi, muassis) funksiyasini amalga oshiruvchi respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda ushbu korxonalar kuzatuv kengashining davlat ulushi bo'yicha saylangan a'zolari farmonning mazkur bandi talablari ijrosini ta'minlashga mas'ul va javobgar hisoblanishi belgilanganligi inobatga olinsin va ijroga qaratilsin.

2. Quyidagilar:

a) ommaviy savdolariga chiqariladigan aksiya paketlari (ulushlar) ro'yxati 1-ilovaga;

b) viloyatda ommaviy savdolariga chiqariladigan davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining ko'chmas mulk obyektlari ro'yxati 2-ilovaga;

v) 2025-yilda foydali qazilmalarni qazib olish uchun foydalanish huquqi elektron onlayn auksion savdolariga chiqariladigan asosiy turdagi foydali qazilma kon va uchastkalari ro'yxati 3-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman (shahar) hokimliklari bozorlar va savdo majmualarida ustav kapitalida davlat hokimiyati organlarining majburiy ishtirok etishi to'g'risidagi talab bekor qilinganligini inobatga olsin.

4. Yer uchastkalari sotilishini jadallashtirish maqsadida:

a) ochiq, elektron onlayn auksion savdolari orqali ijara huquqi asosida sotib olingan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari, agar ular yer uchastkasi realizatsiya qilinganidan keyin tasdiqlangan bosh reja, aholi punktlari qismlarini batafsil rejalashtirish loyihalari yoki tuman (shahar)larni kompleks rivojlantirish va rejalashtirish bo'yicha boshqa hujjatlarga (keyingi o'rinlarda - shaharsozlik hujjatlari) muvofiq, bo'lsa va yer ijara shartnomasida boshqa shartlar nazarda tutilmagan bo'lsa, yer uchastkasi uchun to'lovlar to'liq, to'langanidan keyin O'zbekistan Respublikasi fuqarolari va (yoki) yuridik shaxslari tomonidan xususiylashtirilishiga yo'l qo'yilishi belgilansin;

b) tuman (shahar) hokimliklari elektron onlayn auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalari, ustuvor ravishda, faoliyatini kengaytirish istagida va tayyor loyihasi bo'lgan tadbirkorlik subyektlari taklif bildirgan joylardan tanlashi;

v) elektron onlayn auksion savdolarida turgan maydoni kichik bo'lgan yonmayon turgan yer uchastkalari shaharsozlik normalaridan kelib chiqan holda birlashtirilib, qo'shimcha kelishuvlarsiz qayta auksion savdolariga chiqarilishi belgilansin.

5. Belgilansinki, viloyat, tuman va shahar markazlaridagi davlat tashkilotlari va davlat ishtirokidagi korxonalar ma'muriy binolarining birinchi qavati bo'shatilib, elektron onlayn auksion orqali tadbirkorlik subyektlariga savdo va servis obyektlarini tashkil etish uchun ijaraga beriladi (bundan to'liq, sotiladigan va alohida ahamiyatga ega ma'muriy binolar mustasno).

6. Quyidagilar:

a) Savdo-sanoat palatasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i (M.Qurbonov) ga va tuman (shahar) hokimliklariga, "Davlat mulki" axborot tizimi orqali davlat va davlat ishtirokidagi korxonalar ko'chmas mulk obyektlarini sotish uchun to'g'ridan-to'g'ri elektron onlayn auksion savdolariga chiqarish bo'yicha ariza berish huquqi berilganligi;

b) Savdo-sanoat palatasining viloyat va tuman (shahar) bo'linmalari hamda mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari (arizasi asosida sotilgan bo'sh turgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini sotishdan tushgan mablag'larning boshlang'ich narxidan oshgan qismining 10 foizi tegishli Savdo-sanoat palatasiga yoki hokim yordamchilarini rag'batlantirish uchun Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining hokim yordamchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi va obyekt joylashgan mahalla fuqarolar yig'iniga teng ulushlarda o'tkazib berilishi inobatga olinsin;

v) ommaviy savdolarida ikki oydan ortiq muddatda sotilmagan davlat ko'chmas mulk obyektlarini (viloyatlar markazidagi obyektlar bundan mustasno) sotishni jadallashtirish maqsadida "E-auksion" elektron savdo platformasida akkreditatsiyadan o'tgan rieltorlik tashkilotlari Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida jalb etilishi;

g) davlat ulushlari xususiylashtirishning kamida 2 ta usulidan foydalanganda ham olti oy muddat davomida sotilmagan taqdirda xususiylashtirish sohasidagi vakolatli davlat organining qaroriga ko'ra aksiyadorlar (ishtirokchilar) ro'yxatidan chiqish yoki tugatish tashabbusi bilan chiqishga ruxsat etiladi;

d) davlat mulkini xususiylashtirish dasturi qabul qilingan kundan e'tiboran xususiylashtiriladigan davlat mulkini boshqa shaxsga o'tkazish, hisobdan chiqarish, garovga qo'yish yoki boshqacha tarzda tasarruf etish, ularni xatlash va majburiy realizatsiya qilish taqiqlansin;

i) viloyat mahalliy budjet mablag'lari yoki viloyat hokimligining boshqa mablag'lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan mulklar munitsipal mulk obyektlari jumlasiga kiritilsin.

7. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (A.Qodirov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i (A.Rustamov), tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda, bir oy muddatda mazkur Farmonga

muvofiq, savdoga chiqarilishi belgilangan aktivlarni Davlat aktivlari agentligiga o'tkazib berish masalasini o'zlari aksiyador (ishtirokchi, muassis) bo'lgan davlat ishtirokidagi korxonalarining boshqaruv organlari yig'ilishlarida ko'rib chiqib, o'tkazib berilishini;

davlat ishtirokidagi korxonalar bilan birgalikda xususiylashtirilishi belgilangan davlat aktivlarining ular sotilgunga qadar butligini ta'minlash va begonalashtirmaslikka (sotish, sotiladigan ulush miqdorini kamaytirish, garovga qo'yish, buzish va boshqalar) shaxsan javobgar va mas'ul hisoblansin.

8. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (A.Qodirov), viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i v.b (R. Shaymardonov), Kadastr agentligi davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi boshlig'i (G' Hamrayev), Davlat aktivlarini boshqarish agentligining viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i (A.Rustamov) hamda tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda, tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini tashkil etish uchun rejaga muvofiq, yer uchastkalarining ustuvor ravishda mulk huquqi asosida elektron onlayn auksion savdolariga 2025-yilda chiqarilishini ta'minlasin. Bunda shaharsozlik hujjatlari ishlab chiqilmagan yer uchastkalarini ijara huquqi asosida savdoga chiqarilish ishini davom ettirsin.

9. Viloyat hokimining moliya - iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (A.Qodirov), tuman (shahar) hokimliklari o'zlari ta'sischi (muassis) bo'lgan:

a) davlat korxonalarini va muassasalarini tugatishda ularning majburiyatlarini tegishlilikicha o'zlarining budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari va mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan qoplanishini;

b) davlat ishtirokidagi korxonalarda xarajatlar, shu jumladan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar tasdiqlangan biznes-reja ko'rsatkichlariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishiga ularning birinchi rahbarlari shaxsan javobgarligi belgilanishini ta'minlasin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i (A.Qodirov) zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyati hokimining
2025-yil 29-apreldagi
196-4-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Ommaviy savdolarga chiqariladigan aksiya paketlari (ulushlar) ro'yxati

T/R	CTIR	Nomi	TSHH	Hudud	Sotiladigan ulush (foiz)
“O‘zbekneftgaz” AJ					
1	200699311	UNG Medline	MCHJ	Qashqadaryo viloyati	100
2	205678302	Gissarneftgaz	MCHJ	Qashqadaryo viloyati	55
3.	205222807	“Ko‘kdumaloq Gaz O‘zbekiston –Shvetsariya” QK	MCHJ	Qashqadaryo viloyati	63
Qishloq xo‘jaligi vazirligi					
1.	201268332	Qashteks (3)	MCHJ	Qashqadaryo viloyati	15
Sog‘liqni saqlash vazirligi					
1	200672092	Qashqadaryo viloyat bolalar stomatologiyasi	DM	Qashqadaryo viloyati	100
Shahrisabz tumani					
1.	301839726	Yangi Chorshanbe qo‘rg‘oni dehqon bozori	MCHJ	Qashqadaryo viloyati	51

Qashqadaryo viloyati hokimining
2025-yil 29-apreldagi
196-4-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Viloyatda ommaviy savdolarga chiqariladigan davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining ko'chmas mulk obyektlari ro'yxati

T/r	Obyektning nomi	Manzili	Egallagan maydoni (ga)	Bino va inshootlar maydoni (m²)	Balansda saqlovchi (mulkdor nomi)	Yuqori turuvchi organ yoki tashkilot
1	2-son umumta'lim maktabning bo'sh turgan sobiq binosi	G'uzor tumani, "Guliston" MFY, Kattaqishloq qishlog'i, 90-uy	3,7	3 735,01	2-son umumta'lim maktabi	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
2	Molxona binosi	G'uzor tumani, "Yangikent" MFY, Yangikent qishlog'i	1,04	1 199	"Gissarneftgaz" MCHJ QK	"O'zbekneftgaz" AJ
3	50 o'ringa mo'ljallangan yotoqxona	G'uzor tumani, "Qorako'l" MFY	1,0	1108,1	"Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi"	"O'zbekneftgaz" AJ
4	Sobiq sil kasalliklari shifoxonasi binosi	Kasbi tumani, "Mug'lon" MFY	0,1	250,01	Kasbi tumani tibbiyot birlashmasi	Sog'liqni saqlash vazirligi
5	Keldihayot emlash punkti binosi	Kitob tumani, "Baxor" MFY, Keldixayot qishlog'i	0,01	81	Kitob tumani tibbiyot birlashmasi	Sog'liqni saqlash vazirligi

6	Ochamayli qishloq vrachlik punkti binosi	Kitob tumani, "Sohibkor" MFY, Ochamayli qishlog'i	0,1	102,02	Kitob tumani tibbiyot birlashmasi	Sog'liqni saqlash vazirligi
7	Bektemir oilaviy shifoxona punkti binosi bo'sh turgan qismi	Kitob tumani, "Bektemir" MFY, Bektemir qishlog'i	0,01	94,6	Kitob tuman tibbiyot birlashmasi	Sog'liqni saqlash vazirligi
8	48-son umumta'lim maktabi filiali binosi	Koson tumani, "Xalima" MFY, To'qmang'it qishlog'i	0,05	462,01	48-son umumta'lim maktab	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
9	Elektr tarmoqlari korxonasi sobiq ma'muriy binosi	Koson tumani "Saripul" MFY, Olmazor ko'chasi, 85-uy	0,7	885,01	"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Qashqadaryo hududiy filiali	"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ
10	"Qarshi neft bazasi" MCHJning Koson filiali binosi	Koson tumani, Koson temir yo'l bekati	6,23	2025,7	"Qarshi neft bazasi" MCHJ	"O'zbekneftgaz" AJ
11	M-2 nasos stansiyasi	Qarshi tumani, "Cho'libo'ston" MFY, Sardoba qishlog'i	4,84	1277,4	"Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi"	"O'zbekneftgaz" AJ
12	4 qavatli yotoqxona	Qarshi shahar, "Sho'rtan" MFY, 7-mitti tumani	0,57	4040,4	"Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi"	"O'zbekneftgaz" AJ
13	Kazarma binosi	Qarshi tumani, Kamandi ko'chasi	0,47	120	"Temiryo'linfratuzilma" AJ	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ

14	Omborxonona, ma'muriy bino va yordamchi binolar	Qarshi shaxar, "Kat" MFY,	1,1	4855,74	"O'zmilliybank" AJ Qashqadaryo Bosh boshqarmasi	"O'zmilliybank" AJ
15	Omborxonona binosi va kungaboqar urug'ini qayta ishlab chiqarish bino va inshootlari	Qarshi shaxar, "G'.G'ulom" MFY, Janubiy sanoat hududi 3a-uy	1,8	4479,08	"O'zmilliybank" AJ Qashqadaryo Bosh boshqarmasi	"O'zmilliybank" AJ
16	Sobiq 2-qavatli tez tibbiy yordam bo'limi binosi	Muborak tumani, "Tong" MFY, 4-mitti tuman dahasi, 48-uy	0,5	2740,07	Muborak tumani hokimligi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
17	"148-razyezd" binosi	Muborak tumani, "Obod turmush" MFY, Xitoy ko'chasi 2-uy	0,08	159,1	"Temiryo'linfratuzilma" AJ	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ
18	Noturar bino ⁽¹³⁾	Shaxrisabz tumani, "Xitoy" MFY, Kamar qishlog'i, 395-uy	2,4	5072	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
19	Ma'muriy va ishlab chiqarish bino-inshootlari	Shahrisabz shahri, "Pillakashlik" MFY, Pillakashlik ko'chasi, 2-uy	0,6	6822,68	"O'zmilliybank" AJ Qashqadaryo viloyat bosh boshqarmasi	"O'zmilliybank" AJ
20	"Kitob" stansiyasidagi bo'sh turgan bino	Shahrisabz shahri, "Kesh" MFY Kesh ko'chasi 15a-uy	0,7	379	"Temiryo'linfratuzilma" AJ	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ

21	Omborxonona (okolotka) binosi	Shahrisabz shahri, "O'rtaqo'rg'on" MFY O'rtaqo'rg'on qishlog'i	0,007	47,8	"Temiryo'linfratuzilma" AJ	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ
22	Pillaxona binosi va laboratoriya binosi	Qarshi tumani, "Omontepa" MFY, To'raqul qishlog'i, 160-A uy	0,44	1 764,72	Qarshi tumani obodonlashtirish boshqarmasi	Qashqadaryo viloyati hokimligi
23	"Transgazmaxsusqurilish" AJga qarashli "Qarshigazta'mir" filiali bino-inshootlari	Qarshi tumani, "Batosh" MFY, Beshkent yo'li, 3-km	0,7	645,75	"Transgazmaxsusqurilish" AJ	"O'ztransgaz" AJ
24	G'isht zavod binolari va uskunalari	Qamashi tumani, M-39 magistral shossesi, Yuksalish MFY, 169-uy	3	7454,51	"NBU Invest Group" AJ	"O'zmilliybank" AJ

Qashqadaryo viloyati hokimining
2025-yil 29-apreldagi
196-4-0-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**2025-yilda foydali qazilmalarni qazib olish uchun foydalanish huquqi elektron
onlayn auksion savdolariga chiqariladigan asosiy turdagi foydali qazilma kon
va uchastkalari ro'yxati**

T/r	Obyekt nomi	Joylashgan joyi	Belgilangan maqsad	Foydalanish qazilma turi
1.	Akba	Qashqadaryo viloyati Kitob tumani	Qazib olish	oltin